



“FORTEPIANO JO‘RNAVOZLIGI VOSITASIDA ANSAMBL MADANIYATINING KOMPETENSIYAVIY RIVOJLANISH MEXANIZMLARI”

Normurodova Lobar Mamasoliyevna

Navoiy davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi. Pedagogik

ta'limotlar tarixi yo'nalishi tayanch

doktoranti

Ilmiy rahbar: PhD, v b professor **Yuldoshev Umid Yuldoshovich**

Annotatsiya Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida fortepiano jo'rnavezligining o'rni hamda uning ansambl madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Jo'rnavezlik jarayonida shakllanadigan eshituv madaniyati, ijrochilik hamkorligi, ritmik barqarorlik, interpretatsion moslashuvchanlik va kommunikativ ko'nikmalar ansambl madaniyatining tarkibiy komponentlari sifatida asoslanadi. Shuningdek, jo'rnavezlikni o'qitishning bosqichli metodik modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: fortepiano jo'rnavezligi, ansambl madaniyati, kasbiy kompetensiya, interpretatsiya, ijrochilik hamkorligi, pedagogik tayyorgarlik.

Abstract. This article analyzes the role of piano accompaniment in the professional training of future music teachers and its pedagogical potential in the formation of ensemble culture. The components of ensemble culture formed in the process of accompaniment, such as auditory culture, performance collaboration, rhythmic stability, interpretative flexibility, and communicative skills, are substantiated. In addition, a step-by-step methodological model for teaching accompaniment is proposed.

Keywords: piano accompaniment, ensemble culture, professional competence, interpretation, performance collaboration, pedagogical training.

Аннотация. В данной статье анализируется роль фортепианного аккомпанемента в профессиональной подготовке будущих учителей музыки, а также его педагогические возможности в формировании ансамблевой культуры. Обосновываются такие компоненты ансамблевой культуры, формирующиеся в процессе аккомпанирования, как слуховая культура, исполнительское сотрудничество, ритмическая устойчивость, интерпретационная гибкость и коммуникативные навыки. Также предлагается поэтапная методическая модель обучения аккомпанированию.





Ключевые слова: фортепианный аккомпанемент, ансамблевая культура, профессиональная компетенция, интерпретация, исполнительское сотрудничество, педагогическая подготовка.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisidan nafaqat yakka ijrochilik mahorati, balki ansambl faoliyatini tashkil eta olish, vokal va cholg'u ijrochilariga professional jo'r bo'la olish, ijodiy hamkorlikni boshqara olish kabi ko'p qirrali kasbiy sifatlar talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, fortepiano jo'rnavozligi bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Ansambl madaniyati – bu ijrochilarning o'zaro eshitish, moslashish, bir butun badiiy g'oyani birgalikda yaratish va sahnaviy hamkorlikni amalga oshirish qobiliyatlari majmuasidir. Mazkur sifatlar aynan jo'rnavozlik jarayonida tabiiy ravishda shakllanadi va rivojlanadi.

Jo'rnavozlik - bu musiqiy asarni ansambl shaklida ijro etish jarayonida yetakchi partiyani (vokal yoki cholg'u) badiiy, ritmik va garmonik jihatdan qo'llab-quvvatlash, asarning obrazli mazmunini chuqurlashtirish hamda ijro yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan murakkab ijodiy faoliyatdir. Nazariy jihatdan jo'rnavozlik ansambl tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi. Ansambl tafakkuri -bu bir vaqtning o'zida bir nechta musiqiy qatlamlarni eshitish, ularning o'zaro munosabatini idrok etish va muvozanatlashtirish qobiliyatidir. Jo'rnavoz fortepiano fakturasini ijro etish jarayonida yetakchi partiya bilan o'zaro uyg'unlikni saqlab, garmonik tayanchni mustahkamlaydi va badiiy dramatismni kuchaytiradi. Shuningdek, jo'rnavozlik interpretatsion jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jo'rnavoz asarni tahlil qilishda faqat o'z partiyasiga emas, balki umumiy partitura tayanadi. Bu esa musiqiy matnni kompleks idrok etish va dramaturgik rivojlanishni anglashni talab etadi. Jo'rnavozlikda psixologik omillar ham alohida ahamiyatga ega. Ijro jarayonida hamkor bilan noverbal muloqot (nafas, imo-ishora, ko'z bilan aloqa) orqali musiqiy uyg'unlik ta'minlanadi. Bu jarayon ijrochilardan yuqori darajadagi diqqat, tezkor reaksiya va empatik sezgirlikni talab qiladi. **Jo'rnavoz quyidagi kasbiy sifatlarini egallashi zarur:** rivojlangan ichki eshituv va musiqiy xotira; tezkor nota o'qish (sight-reading) ko'nikmasi; transpozitsiya qilish qobiliyati; fakturani soddalashtirish yoki murakkablashtirish malakasi; improvizatsion moslashuvchanlik.

Ansambl madaniyati ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: musiqiy eshituv va polifonik tafakkur; ritmik uyg'unlik va temp barqarorligi; dinamik va artikulyatsion moslashuvchanlik; interpretatsion birlik; sahnaviy va kommunikativ madaniyat. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi uchun ushbu sifatlar ayniqsa muhimdir, chunki u maktab amaliyotida xor jamoasi, yakkanavoz ijrochilar yoki cholg'u ansambllari bilan ishlaydi. Forteplanoda jo'rnavozlik qilish jarayoni ijrochidan doimiy e'tibor, tezkor reaksiya va eshituv nazoratini talab qiladi. Jo'rnavoz bir vaqtning o'zida: hamroh ovozni qo'llab-quvvatlaydi; umumiy badiiy tasvirni boyitadi; ijrochining nafas olishi va frazalashiga moslashadi; ritmik asosni



barqaror saqlaydi. Fortepianoda jo'rnavezlik qilishda yuqoridagi sifatlarni rivojlantirish uchun albatta bir qancha vaqt, sabr va mehnat lozim bo'ladi. Yaxshi jo'rnavez bo'lish uchun jo'rnavezda ijro texnikasi yaxshi shakllangan, musiqiy eshitish rivojlangan, notani varqadan o'qish qobiliyatlari tezkor bo'lishi kerak. Demak jo'rnavezlik qilishgacha bo'lgan muddatda ijrochi o'z ustida ishlashi lozim. Texnikani rivojlantirish uchun har kunlik muntazam fortepianoda shug'ullanish, ganon va shunga o'xshash mashqlar, gammalar ijrosi, arpedjiolar, etyudlar (K.Cherning op299 va op 740 etyudlar to'plamidan boshlash maqsadga muvofiq) chalish. Notani varaqdan o'qish qobiliyatini tezkor qilish uchun esa albatta, ko'plab yangi asarlar bilan tanishib chiqish. Bunda yangi asarlarni yodlash darajasiga yetkazish shart emas. Notanish asarni bir necha bor chalib chiqish kifoya. Musiqiy eshitish qobiliyati esa barcha musiqachilarda bor bo'lishi kerak bo'lgan xususiyat va buni faqat rivojlantirish kerak. Jo'rnavez uchun ichki ritmni his qilish nihoyatda muhim hisoblanadi. Ritmni yaxshi his qiladigan fortepiano ijrochisi jo'rnavezlik qilishga qiynalmaydi. Bundan tashqari jo'rnavezdand hamroh ovozn doimiy qo'llab quvvatlash talab etiladi. O'quvchiga jo'rnavezlik qilish jarayonida hamroh ovozdagi ritmik buzilishlar yoki adashish, to'xtab qolish kabi vaziyatlarda ham jo'rnavezdand hamroh ovozn qo'llash talab etiladi. Jo'rnavezlik faoliyatida ritmik barqarorlik -ansambl uyg'unligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, vokal yoki cholg'u ijrochisiga jo'r bo'lish jarayonida tempni saqlash, agogik o'zgarishlarga moslashish va ichki pulsni yo'qotmaslik jo'rnaveznining kasbiy yetukligini belgilaydi. Quyidagi ritmik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik mashqlar tizimi bo'lajak fortepianoda jo'rnavezlik qiladigan ijrochilar uchun bir qancha foydali bo'lishi mumkin.

Ichki pulsni shakllantirish mashqlari Maqsad: metronomsiz barqaror tempni ushlash qobiliyatini rivojlantirish. Metronom bilan 4/4 o'lchovda oddiy akkordlar ketma-ketligini ijro etish, so'ng metronomni o'chirib, ichki sanash asosida davom ettirish. Har 8 taktadan so'ng metronomni qayta yoqib, temp og'ishini tekshirish.

Bir qo'l bilan ritmik ostinato, ikkinchi qo'l bilan erkin frazalash mashqlari. Bu mashqlar ichki ritmik nazoratni mustahkamlaydi va tashqi omillarga qaramlikni kamaytiradi.

Sinkopali va murakkab ritmlar bilan ishlash Maqsad: ritmik elastiklikni oshirish. Sinkopali ritm formulalarini alohida mashq qilish (masalan, ♪ ♪ ♪ yoki ♪. ♪). Murakkab o'lchovlar (5/4, 7/8)da qisqa faktura namunalarini ijro etish.

Poliritmik mashqlar (bir qo'lda triol, ikkinchi qo'lda duol). Bu mashqlar jo'rnaveznining murakkab ansambl vaziyatlarida ham barqarorlikni saqlashiga yordam beradi.

Yetakchini kuzatish mashqi Maqsad: ansambl moslashuvchanligini shakllantirish. Hamroh ijrochi bilan ishlaganda ataylab kichik agogik o'zgarishlar kiritiladi. Jo'rnavez tempni yo'qotmasdan, shu o'zgarishlarga moslashishi kerak.

Nafas olish va frazalashni kuzatish asosida kirish va yakunlarni aniqlashtirish. Bu mashq ritmik barqarorlikni mexanik emas, balki ongli boshqariladigan jarayonga aylantiradi.

Ritmik reduksiya usuli Maqsad: fakturani soddalashtirib, asosiy pulsni aniqlash. Murakkab fortepiano partiyasini dastlab faqat bass chiziqlari asosida ijro etish. So'ngra



asosiy urg'ularni ajratib, minimal akkord shakliga keltirish. Keyinchalik to'liq fakturaga qaytish. Bu usul asardagi ritmik skeletni his qilishni o'rgatadi. **Tanaviy ritm mashqlari** Maqsad: ritmni jismoniy sezgi orqali mustahkamlash. Qo'lda chalish, oyoq bilan pulsni bosish orqali murakkab ritm formulalarini takrorlash. **Improvizatsion ritm mashqlari** Maqsad: tezkor reaksiya va ijodiy barqarorlikni rivojlantirish. Berilgan tempda oddiy garmonik aylanish ustida turli ritmik variantlar yaratish. Yetakchi partiya to'xtaganda tempni saqlab qolish mashqi. **Kutilmagan pauzadan so'ng aniq kirish mashqlari.** Bu usul jo'rnavozning sahna holatlariga psixologik tayyorgarligini oshiradi. Ritmik barqarorlik jo'rnavozlikda faqat metronomga bog'liq texnik ko'nikma emas, balki ichki eshituv, ansambl sezgirligi va musiqiy tafakkur bilan uzviy bog'liq kompleks kompetensiyadir. Mashqlarni tizimli va bosqichma-bosqich qo'llash orqali bo'lajak musiqa o'qituvchisida nafaqat barqaror temp hissi, balki ijrochilik ishonchliligi va pedagogik nazorat qobiliyati ham shakllanadi. Yaxshi jo'rnavoz bo'lish -bu faqat musiqiy asbobni yaxshi chalish emas, balki ansambl tafakkuriga ega bo'lish demakdir. **Jo'rnavozlik ijrochidan individual virtuoslikdan ko'ra ko'proq eshitish, sezish va moslashish qobiliyatini talab qiladi.** Quyida eng asosiy kasbiy va shaxsiy xususiyatlarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin: **Rivojlangan ichki eshituv (intonatsion va garmonik sezgi)** Jo'rnavoz bir vaqtning o'zida o'z partiyasi va yetakchi partiyani eshitishi kerak. Bunga esa, tonallikni tez anglash, modulyatsiyani sezish, intonatsion noaniqlikni darhol payqash Bu xususiyatlar ansambl uyg'unligini ta'minlaydi. **Ritmik barqarorlik va ichki puls** Tempni saqlash — jo'rnavozning “tayanchi”, ichki sanash odati, agogik o'zgarishlarga moslashish, yetakchini “tortib ketmaslik” yoki “ortda qolmaslik”, ritmik ishonchlilik sahnadagi barqarorlikni belgilaydi. **Tezkor nota o'qish:** jo'rnavoz ko'pincha yangi repertuar bilan tez ishlaydi, partituraning kompleks ko'rish, fakturani tez idrok qilish, ko'z bilan oldindan o'qish. Bu ayniqsa dars jarayonida va repetitsiyalarda muhim. **Moslashuvchanlik va ansambl sezgirligi** jo'rnavoz individual emas, hamkorlikdagi ijrochi. nafasni kuzatish (vokal bilan ishlaganda), fraza yakunlarini sezish, noverbal muloqotni tushunish **Dinamik va balans nazorati** Yaxshi jo'rnavoz hech qachon yetakchi partiyani “bosib ketmaydi”, ovoz qatlamlarini muvozanatlashtirish, fakturani yengillashtira olish, pedaldan ongli foydalanish, balans esa jo'rnavozlik madaniyatining mezonidir. **Garmonik tafakkur va tahliliy fikrlash** Jo'rnavoz asarni chuqur tahlil qila olishi kerak: shakliy tuzilma, dramaturgik rivojlanish, garmonik tayanch nuqtalari. Bu interpretatsion yetuklikni ta'minlaydi. **Psixologik barqarorlik** Sahnada turli kutilmagan vaziyatlar bo'lishi mumkin: yetakchi partiya xatoga yo'l qo'yishi, temp o'zgarishi, to'satdan pauza, jo'rnavoz vaziyatni tezda boshqarib, hamroh ovoz bilan uyg'unlikni saqlab qolishi kerak.

Demak, jo'rnavozlik - bu faqat texnik ko'nikmalar majmui emas, balki kompleks musiqiy tafakkur, badiiy sezgi va pedagogik mahoratni mujassamlashtirgan ko'p qirrali





ijodiy faoliyatdir. Xulosa qilib aytganda, fortepiano joʻrnavezlik qilish musiqiy ijrochilik faoliyatining muhim va murakkab yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Joʻrnavezlik jarayonida ijrochi nafaqat texnik mahorat, balki ansambl hissi, musiqiy tafakkur, eshitish qobiliyati va ijodiy yondashuvni ham namoyon etishi zarur. Fortepiano ijrochiligi joʻrnavezinin asosiy vazifasi solist ijrosini qoʻllab-quvvatlash, asarning badiiy mazmunini toʻlaqonli ochib berish hamda umumiy ijro uygʻunligini taʼminlashdan iborat. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, joʻrnavezlik koʻnikmalarini shakllantirish jarayonida talabalarning ansambl madaniyatini rivojlantirish, eshitish nazoratini kuchaytirish, hamkor ijro tamoyillarini oʻrgatish va repertuar bilan tizimli ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish fortepiano joʻrnavezlari tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarini tayyorlash jarayonida fortepiano joʻrnavezligi boʻyicha nazariy bilimlar va amaliy koʻnikmalarni uzviy ravishda rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa kelajakda yuqori malakali, musiqiy tafakkuri rivojlangan hamda ansambl ijrochiligida yetuk mutaxassislarni shakllantirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Eraliyeva F. E. Fortepiano oʻrgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli. – *Science and Education*, 2025.
2. Islomova M. Z. Fortepiano oʻqitish jarayonida AKTdan foydalanishning metodik asoslari. – *Science and Education*, 2025.
3. Madjidova G. A. Fortepiano taʼlimining bolalar musiqa maktablaridagi oʻrni. – *Science and Education*, 2025.
4. Алексеев А. Д. **Методика обучения игре на фортепиано.** – Москва: Музыка, 1988.
5. Цыпин Г. М. **Обучение игре на фортепиано.** – Москва: Просвещение, 2003.
6. Баренбойм Л. А. **Путь к музицированию.** – Ленинград: Советский композитор, 1989.
7. Katz M. **The Complete Collaborator: The Pianist as Partner.** – Oxford: Oxford University Press, 2009.
8. Rhee H. **The Art of Instrumental Accompanying: A Practical Guide for the Collaborative Pianist.** – New York: Carl Fischer, 2016.
9. Thompson M. B. **Fundamentals of Piano Pedagogy.** – Springer, 2017.
10. Pike P. **Dynamic Group-Piano Teaching: Transforming Group Theory into Teaching Practice.** – London: Routledge, 2017.

